

Abdusattor JUMANAZAR,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi

Nizomiy Ganjaviy va bulbul

*Oson emas bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq"*
Alisher NAVOIY

Bu men hayotimda uchratgan uchinchi bulbul hikoyasi. Birinchisining xonishini Surxondaryoning Vaxshuvar qishlog'ida, shivalagan yomg'ir sahar-da tinib, tong chog'i oppoq harir tumanga chulg'angan bog'da tinglagandim. Voqea hazrat Muhammad Zohid

Vaxshuvari (1450 – 1530) va So'fi Oллоhyor (1663 – 1724) bobolar ziyoratiga borganimda sodir bo'lgandi. Ikkinchisi, bulbul ekanini darrov bilmaganman. U ham har kuni saharda, tong bo'zara boshlaganda oshxona derazasi oldidagi oq-pushti gullarga g'arq bo'lgan o'rik





daraxtiga qo'nib, maroq bilan sayrardi. Har kuni mening ibodatimga qo'shilayotgan bu sayroqi qanday qush ekanini bilmoqchi bo'ldim. Cho'chitib yubormaslik uchun juda ehtiyotkorlik bilan kuzatish chorasini topdim. Kelishidan sal oldin deraza yaqiniga borib, kursida qimir etmay o'tiraverardim. Mittigina chiroyli qushcha kelardi. Gullar bilan o'ziga oro bergan bir shoxga qo'nib, ijroga kirishib ketardi. Oramizda deraza, bor-yo'g'i bir metrcha masofa bo'lardi. U ancha vaqtgacha bisotidagi eng nafis, nozik sehrli ohanglarini olamga sochardi, to'xtamasdi. Men tinglab rohat olishdan to'xtamasdim. Bu voqeani hech kimga aytmadim, kun bo'yi sarmast yurardim. Bu rohat, yozilayotgan kitoblarimga o'tardi...

Ushoqdekkina kichik go'zal jonzo'tni qafasda emas, ozodlikda shundoq yonginasida turib tomosha qilish ham sira takrorlanmaydigan gashtli hodisa edi. Bu paytda Toshkentning Feruza mavzesida ijarada yashardim. Keyinchalik boshqa uzoqroq joyga ko'chib ketdim. Do'stim – o'sha bulbul endi gohida yuragimga kelib, qo'nib sayraydigan bo'ldi.

Uchinchi bulbul voqeasiga Ozarbayjonda duch keldim. Bir soat ichida Shaki sarguzashtlari totli xotiralarga aylandi. Buyuk ziyorat yo'liga kirdik. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy ustoz hazrat Nizomiy Ganjaviy ostonasi fayzidan umidvor bo'lib boryapmiz. Shaki va

Ganja oralig'idagi yo'lda Sirdaryo va Chinoz manzaralari aynan takrorlanmoqda. Bu yerda ham uzoq masofalarga cho'zilgan yo'l bo'ylab qator-qator laylak uyalari, ularning inlarini yelkasida tutib turgan elektr simyog'ochlarining uzluksiz uzun safi, bir oyoqda turgan laylaklar... Ulgurganimcha suratga olyapman. Hayratlanarli. Shaki, Ganja – Sirdaryo, Chinoz... Ularda, kekxa Turonga oid qadimiy qo'lyozma asarning bir mohir xattot tomonidan ko'chirilgan ikkita nodir nusxasini ko'ryapman. O'sha xattot mashhur Sulton Ali Mashhadiy va Kamoliddin Behzodga ham ta'lim bergan.

Ganjaning mahobatli qopqasidan kirish joyida bizni ulug' ajdodimiz Alp Er To'nganing o'zi kutib oldi. Shakidan menga hamroh bo'lib kelayotgan kichik tasavvur xuddi shu joyda haybatli haqiqatga aylandi. U menda kamsuqum faqirgina bo'lib turgan ekan. Qizil g'ishtlardan bunyod etilgan ikkita ulkan devor. Ulardan biriga Afrosiyob (Alp Er To'nga) shu joyda fors qo'shinini tamom mag'lubiyatga uchratgani bitilgan. Adib Javlon Jovli: "Qarang-a... zo'r ramziy yodgorlik", dedi. Bu gapni eshitib, yana o'sha injiq ko'ngil: "Yo'q, bu ramziy emas, ozar elining haqiqiy sharafi", deydi.

Qopqadan o'tdik. Hazrat Nizomiy Ganjaviyning fayzli ostonasi sari yurishda davom etdik. Katta yo'l o'rtasida Vatan butunligi, Qorabog' ozodligi uchun urushda



*Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari qo'lyozmasi.
Tabriz, 1539 – 1543 yillar.*

shahid bo'lgan o'g'lonlar yirik tasvirlarda bir qator uzun saf tortib turibdi. Ular Turon iftixori xoqon Alp Er To'nganing bugun ham bosqinchi yovdan yurtini himoya qilayotgan bahodir jangchilari... Ularning safi Alp Er To'nga qarorgoh tikkan ulkan qopqadan Ganja shahrining qoq o'rtasigacha, ushbu tarixiy O'rnak yo'li borgan joyga qadar cho'zilgan. "Kamida yetti-sakkiz chaqirim chiqadi-yov", deb chamaladim.

Nizomiy Ganjaviy "uyi" shu yo'lning yoqasida ekan. Yetib keldik. Ulovdan tushdik. Etim yengilgina jimirlay boshladi. Bu hayajonning ishi. Bobomiz shu atroflarda yurgan, yashagan. Dunyo adabiyotining noyob durdonasi sharqdagi mashhur birinchi "Xamsa" (Besh xazina) asari 1195-yillarda shu qutlug' go'shada yozilgan. "Xusrav va Shirin" dostonining asl malikasi suluv Ofoqxonim ham shu yerda hayot kechirgan, shoirni ilhomlantirgan. Malika "Shirin" bo'lib, dostoniga Ishqni olib kirgan, satrlarni nafosat va go'zallik ila ziyoratlagan. U Nizomiyning suyakli hayot yo'ldoshi, xotini edi.

Ulovdan tushib, hazrat mangu qo'nim topgan oromgohga borganimizcha "Iskandarnoma" dostoni manzaralarini ham oralab o'tganimizni tushundim. Shu sababdan bu safarimizni "Buyuk ziyorat" deb atagan ekanman-da...

Hamma maqbara oldidagi keng maydonga yoyilib ketdi. Nizomiy davridagi Turon darveshlari sakkiz yuz yildan oshiq vaqt o'tib, murshidini yo'qlab kelgan edi... Ulovdan tushganim zahoti Ganjaviy tasarrufini his qildim. Holim o'zgardi. Boshqalardan ortda qolib ketdim. Ular ayni damda mening ko'zimga darveshlar bo'lib ko'rinayotganini o'zlari bilmaydi. Bu yerda itlar ko'p ekan. Jontemir ularni kuzatyapti. Birdan atrofdagilarni hayratga solib sam'o raqsiga tushib ketadigan Muxtor sokin bo'lib qolgan. Bahrom, Javlon, Najmiddin sasli zikr qilayotganga o'xshaydi. Farrux, Safarali muroqabada... Qolganlar allaqachon, jazbaga tutqun bo'lgan.


Boshimni bir silkib oldim va qarog'imdagi manzarani o'zgartirdim. Sal qoldi, sakkiz asr narida qolib ketishimga. Nizomiy Ganjaviy tariqat ahlidan edi, "Maxzan ul-asror" asari va "Devon"i bunga hujjatdir. Alisher Navoiy "Suluk ayyomida qirq arba'in chiqaribdurlar va to'rt arba'inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar", deb bu so'zimizni tasdiqlaydi. Najmiddin Kubro Xorazmning birgina nazari



tushgan it avliyo maqomiga ko'tarilib, chiltanlar halqasiga qo'shilgan ekan. Hozir ko'rayotganlarim ham g'ayri odatiy ajablanarli manzara emas. Axir, Alloh taloning bir daraxt tepasida to'rt marta chilla tutgan Oshig'i hovlisiga kirdik. Endi holimiz uning tasarrufida.

Nizomiy qabri ziyoratini bajo etdik, tilovat qilib, savobini pok ruhiga bag'ishladik. Qabr tepasidagi maqbara qayta qurilgan. Uning sha'niga bugungi avlodning yuksak ehtiromi ifodasi u. Uning Ganja shahri tarafida alohida bog', to'rida daho shoirga haykal o'rnatilgan va asarlari voqealari aks etgan yodgorliklar majmuasi barpo etilgan. Yoniga bordik. Har kim bu yerda o'z istagini izlayapti. Men Alloh Oshig'i to'rt marta chillada o'tirgan daraxtni qidirapman. Oradan ko'p asrlar o'tib ketgan. Muhimi, o'sha bog' qolgan. U daraxt o'rnini boshqalari to'ldirib turibdi.

Bir darveshni ziyorat qilmoq. "Mahzan ul-asror"; Nizomiy Ganjaviy. Safaviy Isfaxon, 1610. To'pqopi saroyi san'at muzeyi xazinasi, 1641.



Mashhur "Nizomiy va Bulbul" voqeasi ham shu bog'da sodir bo'lgan. Undan xabari borlar "Bu ikki oshiq suhbat, nolalar musobaqasi edi", deydi. Uni Nizomiyning o'zi hikoya qilgan ekan. Rovi shu voqeaga oid shoir g'azalidan bir bayt o'qiydi:

Nizomiydan o'taman, degan bulbul,
G'azalin eshitiboq, lol qoldi ul.

O'shanda Nizomiyning ilohiy ishqqa yo'g'rilgan o'tli satrlari bulbul holini tang qilgan, oshiq yuragidan ko'kka o'rlayotgan nolalar uni tildan qoldirgan ekan. "Bu joyda Bulbul uyalgan, mag'lub bo'lgan", deb aytgim keldi sheriklarimga. Biroq o'sha damda ularning o'zlari ham mag'lublar edi...

Bu gaplarni aytishning endi mavridi keldi. Aytildi.

Hazrat Navoiy muhabbat ekinlariga bag'ishlan-

gan bitigida ("Nasoyim ul-muhabbat") ma'naviy ustoz Nizomiy Ganjaviy sifatlarini ulug'lab ta'riflaydi. "Xamsa"ni "Besh xazina" deb ataydi. Bu tavsiflar muallif va asarga berilgan munosib yuksak baho, tarjima ham oliy darajada san'atkorona bajarilgan. "Xamsa" nomini biror tarjimon turkiyga bunday o'girmagan... Bizning ziyoratimizda Navoiy ham ishtirok etdi. Bu ziyoratda hamma o'z voqeasiga ega bo'ldi. Ularni o'zlari hikoya qilishadi.

Ozarbayjondan qaytgach, institutda saqlanayotgan qo'lyozmalarning birinchi asosiy fondidan (yana ikkita bor) "Xamsa" asarini axtardim. To'qson beshtadan ortiq nusxa chiqdi. Tavsif varaqchalarida bu noyob xazina Nizomiy Ganjaviy (1041 – 1209), Xusrav Dehlaviy (1253 – 1325), Alisher Navoiy (1441 – 1501) ijodi mahsuli ekani qayd etilgan. Men bu bebaho ma'naviy xazina "Xamsa"ning ilk paydo bo'lgan joyi – Ganjaga borib keldim. Endi uni o'zimizdan qidirmasam, ziyorat chala bo'lib qolardi. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining hech bo'lmaganda to'rt-beshta qo'lyozma nusxasini topishdan umidvor edim. Shuncha chiqqanda ham xursand bo'lardim. Biroq, u 20 nusxadan ko'p ekan!

Ulardan birining qisqacha tavsifi: O'ZR FASHI. №1984. Muallif – Abu Muhammad Jamoliddin Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviy. Asar tili forscha, o'lchami 24,5x17,5 sm, hajmi 348 varaq (1b-348b), xati nasta'liq, matn mahalliy sifatli sharq qog'oziga hoshiya chiziqlari bilan ajratilgan to'rt ustunda yozilgan, XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilgan.

Birinchi asar: "Maxzan ul-asror" dostoni, sarlavha oq rangda yozilgan. Matn boshi chiroyli naqshin lavh bilan bezatilgan. Vaqt o'tishi va asar ko'p o'qilishi natijasida lavh buyoqlari yorqinligi xiralashgan. Matn atrofi ko'k va tilla rangli hoshiya chiziqlari bilan o'ralgan, buyog'i yaxshi saqlangan. Matnlar varag'i xattot tomonidan raqamlangan, tavsifchi qora qalamda qayta raqamlab chiqqan. Mazkur ishimizda varaqlar sanog'i tartibi tavsifchi raqamlari asosida ko'rsatildi.

Ikkinchi asar: "Xusrav va Shirin" dostoni, bu yerda ham matn boshi chiroyli naqshin lavh bilan bezatilgan. Birinchisidan yorqinroq, nafis va mukammal ishlangan, sarlavha oq rangda yozilgan. Bu dostonni varaqlab, yana Ganjaga borib qolganday bo'lyapman. Ganjaviy va Ofoqxonimni esladim...

Uchinchi asar: "Layli va Majnun" dostoni, matn boshi chiroyli naqshin lavh bilan bezatilgan, ranglari yorqin, sarlavha oq rangda yozilgan. Qo'lyozmadagi bezak lavhlar bir-birini aynan takrorlamaydi. O'xshash tomonlari ham bor. Bu lavhning kichik bo'laki rangi tashqi ta'sir oqibatida yengil zararlangan.



To'rtinchi asar: "Haft paykar" dostoni, matn boshi chiroyli naqshin lavh bilan bezatilgan, ranglari yorqin, nafis va mukammal ishlangan, sarlavha oq rangda yozilgan. Bu bezak lavh juda yaxshi saqlangan.

Beshinchi asar: "Oynayi Iskandar" ("Iskandarnoma") dostoni, matn boshiga chiroyli unvon lavh ishlangan, ranglari yorqin, nafis va mukammal, sarlavha oq rangda yozilgan. Bu bezak unvon lavh ham juda yaxshi saqlangan.

Mazkur doston ikki jildidan tashkil topgan. Birinchi jild 305 betda tugagan. Matnning oxirgi bo'limi "Xatmi mujalladi avval az sharafnomai Iskandari" deb nomlangan.

Ikkinchi daftar matni boshiga ham alohida chiroyli unvon lavh ishlangan, ranglari yorqin, nafis va mukammal, sarlavha oq rangda yozilgan. Bu bezak unvon lavh ham juda yaxshi saqlangan, ranglari o'ta yorqin, sirti alohida maxsus varaqcha bilan yopilib, himoyalangan.

Bu doston matni nuqsonli, 348-varaqdan keyingi qismi tushib qolgan. Oxirgi hikoyat "Anjomash ro'zgori

Aflotun" deb nomlangan va faqat 4 satri saqlanib qolgan.

Qo'lyozma muqovasi qattiq qog'ozdan, sirtiga turli rangdagi gullardan chiroyli bezakli qog'oz qoplangan. Jild o'rtasi va past-balandiga an'anaviy turunj va sarturunj naqsh bosilgan. Ularga "Amali Mirzo Ibodulloh sah-hof, 1245" satrlari yozilgan. Qo'lyozmaning old va ortki jildini birlashtirib turuvchi belbog'i asli yo'q, jigar rangli maxsus belbog' mato qo'yilib ta'mirlangan.

Ozarbayjon va O'zbekiston qadimiy Turonning ikkita azaliy bog'i. Ularni jannatga o'xshatganlar aslo adashmagan...

Ozarbayjonga safarim menga bir turkum "Ozarbayjon hikoyalari"ni hadya qildi. Nizomiy va Bulbul voqeasi uning bitta ko'hna sahifasidir. Uning ortida "Qorabog' qissasi", "Oqtosh hikoyasi", "Musavvir Navoiy", "Umid... Yo'l darg'asi" kabi yana bir qancha sahifalar qatorlashib turibdi. Ular ham, albatta, hikoya qilinadi. ❀